

TAYANCH-XARAKAT APPARATI MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK USUL VA VOSITALARNING O'RNI

Umirov Nurulla Usanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Xushvaqtova M.U

Xudoyberdiyeva X.N

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalar

Annotatsiya: *Mamlakatimizda ta'lif tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishga olib keladi. Bu esa talabadan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Ushbu maqolada anatomiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik usul va vositalar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, innovatsiya, interfaol, muammoli o'qitish, grafik organayzerlar.*

O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimining kundan kunga rivojlanib, yangi qirralarga erishishi yoshlarga ta'lif-tarbiya berishda o'qitishning zamonaviy, ilg'or va samarali usullaridan foydalanishni xamda bu soxada tinimsiz izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Shuning uchun ham, ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'lifda qo'llanishiga oid bilimlar, kuzatilgan tajribalar talabalarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zları o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Innovatsiya (inglizcha innova-sion) so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lif oluvchilar bilish jarayoniga jalg qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Ta'limning faolligi – ta'lim oluvchilarning faolligini tashkillashtirishni ta'minlab beruvchi ta'lim. Ta'limning faol usullari – ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini kuchaytirish usullaridan iborat.

Interfaol ta'lim– ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro harakatni amalgalashuvchi dialogli ta'limdir. Interfaollik – ta'lim doirasida prinsipial yangi hodisa hisoblanib, shu tufayli ta'lim oluvchi ta'lim subyektlari bilan faol o'zaro harakatda bo'ladilar.

Muammoli o'qitish - Maqsadi faol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Vazifasi- faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muammoni echish usulini izlashga o'rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir.

Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:

- talabalar muammoning echimini o'zлari topishga urinadilar;
- talabalar bitta savolga har xil fikrlar bildiradilar;
- fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.

Muammoli o'qitishning shakllari:

- ma'ruza yoki seminar darslarida o'quv materialini muammoli bayon etish;
- laboratoriya ishlari yoki tajriba qilishda qisman izlanuvchi faoliyat;
- bitiruv ishlarini bajarishda mustaqil tadqiqot faoliyatlaridan iborat.

Grafikli organayzerlar:

Tashkiliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etishning vosita va yo'llari - ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkiblarga bog'lish, o'rganilayotgan tushunchalar (xodisa, voqeа, matn, mavzular va boshq.) o'rtasidagi aloqa va o'zaro aloqani o'rnatish usullari hisoblanib ularga:

- Klaster;
- Toifalash jadvali;
- B.B.B jadvali;
- Konseptual jadval;

Ma'lumotlarni tahlil etish va taqqoslashning yo'l va vositalari:

- Venn diagrammasi;
- SWOT – taxlil jadvali;
- Kuchlar taxlili grafigi;

Muammoni aniqlash, tahlil etish va hal etishni rejalashtirishning yo'l va vositalari:

- "Nima uchun?";
- "Qanday" diagrammasi;
- "Baliq skeleti" chizmalari;
- "Pog'ona" tuzulmaviy – mantiqiy chizma;
- "Piramida";
- "Nilufar guli";

Bevosita jamoa bo'lib, "fikrlar hujumi"ni olib borish:


- Aqliy hujum usuli;
- Insert texnikasi;
- Kichik guruhlarda ishslash orqali o'quv loyiha ishlari bo'yicha muhokama;

"Klaster" (tarmoqlar) uslubi.

Fikrlarning tarmoqlanishi – pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda o'rgatadi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

- Hayolga kelgan harqanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib, ketma-ket yoziladi.
- Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u xolda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi.
- Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlikning ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.



KLASTER

(Klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'il-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollash-tirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'la-nishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Tayanch-xarakat apparatining yoshga bog'liq xususiyatlari


Odam skeleti				Suyaklar klassifikatsiyasi	
Bosh skeleti	Gavda skeleti	Qo'l skeleti	Oyoq skeleti	Yassi	Bosh suyaklari
Miya qutisi	To'sh suyagi	Yelka kamari	Tos kamari	Yassi	Bosh suyaklari
Yuz qismi	Qovurg'a suyaklari	Qo'lning erkin suyaklari	Oyoqning erkin suyaklari	G'ovak Naysimon Kalta Aralash	Peshona, jag' Yelka, son Kaft bormok Umurtqa

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlash-tiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan



Tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Pog‘ona”ni qurish qoidalari

-“Pog‘ona”ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta fikrlash imkonini beradi.

-Agarda siz g‘oyalarni ishlab chiqishda tor yo‘lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko‘rib chiqing.

-Siz chapdan o‘ngga yozishga o‘rgangansiz. “Kaskad” qurishni o‘ngdan chapga qarab tuzishgaharaka qiling. Buning uchun asosiy g‘oyani chap tarafda emas, balki o‘ng tarafda joylashtiring.

“FSMU” (fikr,sabab, muloxaza, umulashadirish) usuli.

Namuna: Muskul ishi va charchashi

FIKR	SABAB	MISOL	XULOSA
Muskulning dinamik ishi	Turli gurux muskullarning navbatdan o‘zgarishi	Yukni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish,	Yurish, yugurish kabi xarakatlar dinamik ishga asoslanadi.
Muskulning statik ishi	Muskullarning qarshiligi va tonusi	yurish,yugurish	Ma’lum pozani egallab turganda yoki yukni ko‘tarib turganda
Muskullarning nerv charchashi	ortadi	Start oldi xolati, shtangani ko‘tarib turish.	statik ish bajariladi.
Muskullarning charchashi	Nerv markazlarida charchash	Uzoq muddat akliy ish bilan mashg‘ul bo‘lish	Muskullar ATF xisobiga ish
	Muskul tolalariga oziq moddalarning yetishmasligi	Uzoq muddat jismoniy mashq bilan mashg‘ul bo‘lish	bajaradilar. Jismoniy charchash fiziologik jarayon.

Faol o‘qitish usullari haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz o‘qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu yerda ko‘rib chiqqan o‘qitish usullari o‘ziga xos alohida misollarga ega. Bu turdagи metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishslash, o‘rganilayotgan

mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolipova J.O., Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Metodik qo'llanma «O'qituvchi», T.: 2013.
2. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. T . «O'qituvchi» 2004.y
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.2005.
- 4.Safarova R., YUsopova F.O'quvchilarining bilish faoliyatini kengaytirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyihalash. T., 2014.
- 5.Azimov I. va boshqalar «Biologiya metodik qo'llanma», «Ibn Sino»2002Y.
- 6.SHaxmurova G.,Tog'aeva G. “Biologiya fanini o'qitish metodikasi” moduli bo'yicha o'quv –uslubiy majmua Toshkent – ‘